

**DUTOR CHOLG‘USI IJROSIDA SHTRIXLARDAN TO‘G‘RI FOYDALANISH
VA O‘QUVCHILARDA TURLI SHTRIXLARNI ERKIN ISHLATA OLISH
QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH.**

**РАЗВИТИЕ У СТУДЕНТОВ НАВЫКОВ ИСПОЛНЕНИЯ РАЗЛИЧНЫМИ
ШТРИХАМИ НА ИНСТРУМЕНТЕ ДУТОР.**

**CORRECT USE OF STRUMMING PATTERNS IN THE PERFORMANCE OF
DUTOR INSTRUMENTS AND FORMATION OF THE ABILITY TO STUDY OF
DIFFERENT STRUMMING PATTERS IN STUDENTS.**

Qo‘chqorov Shamshodbek Mirsaid o‘g‘li

Guliston Davlat Universiteti “San‘atshunoslik” fakulteti talabasi

Bahadirov Nail Sharifovich.

Ilmiy rahbar: Guliston Davlat Universiteti.150000.Sirdaryo viloyati

Guliston shahri 4-mavze.

Email: mirsaidshamshodbek62@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola dutor cholg‘usi ijrosida shtrixlardan to‘g‘ri foydalanish mavzusiga bag‘ishlanadi. Maqolada shtrix o‘zi nima, uni qanday o‘rganish va o‘rgatish, shtrixlarni qanday guruhlarga bo‘lish lozim, musiqiy asarga shtrix qo‘yishda nimalarga e‘tibor qaratish lozim va shunga yaqin bir necha savollarga javob yozilgan. Yana maqola ichida o‘quvchi va o‘qituvchilarga shtrixlarni to‘g‘ri o‘rganish uchun tavsiyalar berilgan. Bundan tashqari maqolada dutor cholg‘usida sifatli tovush chiqarish borasida ham ma‘lumotlar berilgan va yetuk ustozlar fikrlaridan ham keltirilgan. Dutor cholg‘usi ikki torli cholg‘u bo‘lib, chetdan qaraganda uni ijro etish oson ko‘rinsa-da, ammo, yetuk dutor ijrochisi bo‘lish juda qiyin. Boshqa torli cholg‘ular ijrosida chap qo‘l mahoratiga baho berilsa, dutor cholg‘usida esa chap va o‘ng qo‘l mahorati birdek bo‘lishi (o‘ng qo‘l mahorati bu-shtrix) lozim va shunga qarab ijrochi baholanadi. Dutor cholg‘usida mahorat mashqlari o‘ng va chap qo‘lda birdek, bir vaqtda olib borilishi lozim. Faqatgina o‘ng qo‘l yoki faqatgina chap qo‘l mahorati (texnikasi) uchun mashq bajarish bu noto‘g‘ri.*

O‘quvchi yaxshi ijrochi bo‘lib yetishishi zamirida avvalo iste‘dod va mehnat yotadi. Mana shu mehnat jarayonini o‘qituvchilar to‘g‘ri tashkil qila olsagina o‘quvchilari yuksaklikka ko‘tarilishi oson bo‘ladi. Maqolada berilgan shtrixlar dutor prima, dutor sekunda, dutor alt va dutor tenor cholg‘ulari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, berilgan shtrixlarni bemalol mana shu cholg‘ular ijrosida qo‘llash mumkin.

O‘ylaymanki, mazkur maqoladan o‘zingiz uchun yangi ma‘lumotlar va tavsiyalar ola olasiz.

Kalit so'zlar: Dutor, shtrixlar, sifatli tovush, ufori zarb, mahorat mashqlari, chap va o'ng qo'l mahorati, templar.

Аннотация: В этой статье основное внимание уделяется правильному использованию штрихов при исполнении дутара. Статья отвечает на ряд вопросов, таких как, что такое штрих, как его изучать и преподавать, как делить такты на группы, на что обращать внимание при штриховании музыкального произведения и многое другое. В статье также приводятся советы для учащихся и преподавателей по правильному освоению штрихов. В статье также приведены сведения о качестве звука на дутаре и мнения ведущих педагогов. Дутар — двухструнный инструмент, на котором со стороны может показаться, что играть на нем легко, но быть хорошим дутаристом очень сложно. При исполнении на других струнных инструментах оценивается мастерство левой руки, а при исполнении на дутаре мастерство левой и правой рук должно быть одинаковым (навык правой руки — штрих) и оценивается исполнитель соответственно. Упражнения на дутаре следует выполнять на правой и левой руке одновременно. Неправильно практиковать только правую или левую руку.

Талант и трудолюбие являются ключом к тому, чтобы ученик стал хорошим исполнителем. Если учитель организует этот рабочий процесс, ученик сможет добиться высоких результатов. Приведенные в статье такты предназначены для инструментов дутар-прима, дутар-секунда, дутар-альт и дутар-тенор, и данные такты могут быть легко использованы при исполнении этих инструментов.

Я надеюсь, что вы найдете эту статью полезной и информативной.

Ключевые слова: Дутар, штрихи, качественный звук, "удар по уфору", упражнения на ловкость, навыки левой и правой руки, темпы.

Abstract: This article focuses on the proper use of strumming patterns in the performance of the dutar. The article answers a number of questions, such as what a strumming pattern is, how to study and teach it, how to divide bars into groups, what to look for when beating a piece of music, and more. The article also provides tips for students and teachers to learn the strumming patterns correctly. The article also provides information on the quality of sound on the dutar and the opinions of leading teachers. The dutar is a two-stringed instrument that may seem easy to play from the outside, but it is very difficult to be a good dutar player. In the performance of other stringed instruments, the skill of the left hand is assessed, while in the performance of the dutar, the skill of the left and right hands must be the same (right hand skill is plucking) and the performer is evaluated accordingly. Dutar exercises should be performed on the right and left hands at the same time. It is wrong to practice only the right hand or the left hand.

Talent and hard work are the key to a student becoming a good performer. It is only when teachers organize this work process that students will be able to rise to the top. The strumming patterns given in the article are intended for dutar prima, dutar second, dutar

alt and dutar tenor instruments, and the given bars can be easily used in the performance of these instruments.

I hope you find this article useful and informative.

Keywords: *Dutar, strumming patterns, quality sounds, beats of ufar, skill exercise, left and right hand skills, thempos.*

Kirish. Sharq xalqlarining suyuqli cholgʻusi hamda cholgʻular malikasi hisoblanmish dutor oʻzining nozikligi, nafisligi hamda sehirli ovozga ega ekanligi bilan alohida eʼtirofqa loyiqdir. Dutor ikki torli cholgʻu boʻlishiga qaramay, uni chalish yetarli darajada mushkuldir. Anʼanaviy dutor (dutor tenor) cholgʻusida asar ijro etilganda ushbu dutorga joʻrnavor shart emas, sababi, bu dutor oʻziga usul va akkord tovushlarini qoʻshib ijro etiladi (dutor prima, dutor sekunda, dutor alt va dutor tenor cholgʻularida akkord ijro etib boʻlmaydi, sababi mazkur dutor cholgʻulari ikki tordan iborat boʻlib, ularda faqat akkordlarning intervallarini ijro etish mumkin. Akkord - tertsiya intervali boʻyicha joylashgan 3 va undan ortiq tovushlar jamlanmasidir). Dutorning ovozini sehirli va jozibali qilish esa ijrochining mahorati, qoʻllarning nafis harakati hamda eng asosiysi tanlangan toʻgʻri shtrixlarga bogʻliqdir.

Tadqiqot obyekti va qoʻllanilgan metodlar. Tadqiqot obyekti sifatida dutor cholgʻusi (dutor alt, dutor prima, dutor sekunda, dutor tenor), dutor cholgʻusi uchun yaratilgan ayrim darsliklar olindi. Tadqiqotni amalga oshirishda tavsiflash, qiyoslash, tasniflash, tekshirish kabi metodlar qoʻllanildi

Olingan natijalar va ularning tahlili.

Shtrix soʻzi nemischa “strich” koʻp maʼnoli atama boʻlib, chiziq, belgi, belgi qoʻymoq maʼnolarini anglatadi. Grafik va tipografik belgi boʻlib odatda turli sohalarida chiziqlar yoki maxsus belgilar bilan belgilanadi. Musiqada esa shtrix tovush chiqarish tusi yaʼni ijro uslublari hisoblanadi. Amaliyotdan kelib chiqqan holda shtrixni shartli ravishda “Natija” deb atasak boʻladi. Sababi oʻng qoʻl harakati va zarbi natijasida shtrix vujudga keladi. Oʻng qoʻl zarbi qanday boʻlishiga qarab natija ham qandayligi ayon boʻladi (oʻng qoʻl harakati qandayligiga qarab tovush sifati ham yaxshi yoki yomon boʻladi). Mizrobli, kamonli, chertma torli va urma torli cholgʻular guruhiga mansub cholgʻularda shtrixlarning bir necha turlari mavjud.

“Ijro etishda oʻng qoʻl bilagi sifatli tovush chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda barmoqlar torlarni chertish jarayonidagi holati asosiy omil hisoblanib, cholgʻu dekasi, yaʼni qopqogʻiga barmoqlarni zarb bilan urilishi natijasida chiqadigan “shittillagan”, “taqillagan” nomusiqiy tovushlardan holi boʻlishi lozim. Albatta buni nafaqat cholgʻuchi, oʻquvchi-talaba nazorat qilishi, balki ushbu holatni oldini olish, vaqtida tuzatib toʻgʻrilash oʻqituvchining toʻgʻridan-toʻgʻri vazifasi hisoblanadi. Yuqorida aytilgan fikrlar asnosida shuni aytish lozimki, oʻng qoʻl bilagi dasta bilan cholgʻu kosaxonasi tutashgan, pardalari tugagan joyda ijro etish va ijro jarayonida

barmoqlar bilan qopqoqni urib emas, barmoq uchlarini mayin tekizish, torlarni bir maromda sezib chertish bilan sifatli tovushga erishiladi.”*¹

Dutorda tovush chiqarish, o'ng va chap qo'l harakatlari va joylashuvi qanday ahamiyat kasb etsa, dutor ijrosida o'ng qo'l barmoqlari harakati mayda detallar bilan o'rganilishi zarur.

Barcha sohani o'rganayotganda avval barcha ma'lumotlarning oson ko'rinishi beriladi, mavzularni o'zlashtirib borilgani sari soha ham murakkablashib boradi. Dutor ijrochiligida ham ilk o'rganayotgan cholg'uchilarga o'ng qo'l harakatlari juda oddiy usulda o'rgatiladi, ya'ni o'ng qo'lning 4 ta barmoqlari birlashtiriladi, bosh barmoq va qolgan 4 barmoq orasida biroz bo'shliq qoladi. Bunda qo'l holati huddi olma tutgandek turadi. Chalish jarayoni esa panja bilan pastga bosh barmoq bilan yuqoriga tarzida o'rgatiladi. O'quvchining ijrosi yaxshi bo'lib borishi bilan o'qituvchi buni o'z vaqtida sezib, o'ng qo'l harakatining nozik detallarini o'rgata olishi lozim.

O'ng qo'l ijrosining nozik detallariga; o'ng qo'l barmoqlari ijro holatida harakatlanishi, bilak harakati (kist harakati), panja bilan nozik ijro etish, o'ng qo'lning tepa qismi yani bilakdan tepagacha bo'lgan qismi harakatlanmasligi kabilar kiradi.

Tovush sifati yaxshi chiqishi uchun o'ng qo'l ijrosida barmoqlarni harakatlantirib ijro etish juda muhimdir. Chunki barmoqlar bir qolipda turgan holda pastga yuqoriga shtrixlarini ijro etsa, torlarni his qilmaydi va shuningdek tovush sifati ham yaxshi bo'lmaydi. O'ng qo'l ijro holatida barmoqlar harakatlanishi bu torni, chalinayotgan asarni va tovush sifatini his qilish, tushunish demakdir. Yuqoridagi U.Yunusovning fikrlari bu holatning yaqqol dalilidir.

Musika cholg'ularida ishlatiladigan barcha shtrixlarning asosi II-pastga va V-yuqoriga shtrixi bo'lib, qolgan shtrixlar ushbu ikki asosiy shtrixning birin ketin takrori, juftlanma takrori va yoki biroz o'zgartirish kiritilgan holatidan kelib chiqqan.

Dutor cholg'usida ikkita tor bo'lishiga qaramay, u o'zining shtrixlari hilma-hilligi, ko'pligi va murakkabligi bilan ahamiyatlidir. Mahoratli dutor ijrochisi bo'lish uchun dutor cholg'usida o'ng qo'lda murakkab va turli shtrixlar ustida ishlash, chap qo'lda barmoqlar mahoratini oshirish lozim.

Dutor cholg'usi ijrosida shtrixlardan to'g'ri foydalanishni o'quvchiga o'rgata olish uchun o'qituvchi shtrixlar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi lozim.

Quyida dutor sozida ko'p ishlatiladigan shtrixlarning shartli belgilari bilan tanishib chiqamiz:

II- pastga. Umumiy belgi bo'lib, asar harakteriga qarab panja yoki jimjiloq bilan ijro etish

*¹ Yunusov U. Xalq cholg'ularida ijrochilik - Toshkent: Musika, 2021. 6-bet 3-xatboshi.

mumkin.

V- tepaga. Asar harakteriga qarab asosan bosh baqmoq bilan, ayrim hollarda ko'rsatkich barmoq bilan ijro etiladi.

P- pirrang yoki rez. Ushbu shtrix asosiy shtrixlarning juft takroridan iborat, ya'ni IIIIVV. Ko'rsatkich barmoq va bosh barmoq ishtirokida hosil qilinadi. Ayrim hollarda pirrang shtrixining ilk pastga shtrixi jimjiloqqa yondosh ravishda 3ta barmoq bilan ijro qilinadi.

Tr-tremolo. Ko'rsatkich barmoq shtrixi bo'lib asosiy shtrixlarning yakka takroridan hosil bo'ladi. IIV ushbu ko'rinish ketma-ket to'xtovsiz ravishda nota cho'zimiga tayangan holda ijro etiladi.

Pitsikato (pizzikato qisqartirib pizz). Ushbu shtrixning qolgan shtrixlardan farqi uning bitta torda chimdim chalinishidadir. Ushbu shtrix bitta torda bosh va ko'rsatkich barmoq yordamida chimdim chalish natijasida hosil qilinadi. Pitsikato shtrixi ham asosiy shtrix yordamida ijro qilinadi. Endilikda bosh barmoq pastga, ko'rsatkich barmoq esa tepaga chimdib chaladi.

+ Chap qo'l pitsikatosi. Mazkur shtrix o'ng qo'l yordamisiz chap qo'l barmoqlarida torni pastga tomon tortish natijasida tovush hosil qiladi. Chap qo'l pitsikatosini chalish biroz mushkul bo'lib, bu shtrixni chala olish uchun ijrochidan chap qo'l mahorati talab qilinadi.

× o'ng qo'l barmoqlari bilan dekaga chertish.

Dutor sozini chalishda ishlatiladigan eng asosiy shtrixlar mana shular bo'lib qolgan shtrixlar ushbu shtrixlardan kelib chiqqan holda asar usuliga moslangan (masalan teskari zarb, ufori zarb, bilak zarb) tarzda ijro etiladi.

Shtrixlarni nota matnida ya'ni asar ijrosi jarayonida to'g'ri qo'llash ahamiyatlidir. O'z tajribalarimdan kelib chiqqan holda shuni ayta olamanki asarning nota matniga shtrix qo'yishda 3ta muhim jihatlarga e'tibor berish lozim. Bular:

1. Asar harakteri
2. Asar tempi.
3. Asar dinamikasi.

Shtrixlar ham tez tempda yaxshi jaranglaydigan va sokin tempda yaxshi jaranglaydigan turlarga bo'linib, sokin tempda chiroyli jaranglaydigan shtrixni jadal ijro etiladigan nota matniga joylashtirilganda asarning mazmun-mohiyatiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Ya'ni baastakor asar orqali aytmoqchi bo'lgan yoki yoritgan fikrlarni biroz o'zgartirib, chalkashtirib yuborishi mumkin. Shu o'rinda savol tug'iladi, tez tempda va sokin tempda yaxshi jaranglaydigan shtrixlarni qanday ajratamiz? Musiqachilarga ayonki shtrix chalish davomida II II shtrixlari ketma-ket kelib qolsa ushbu shtrixni tez tempda chalish biroz qiyinchilik tug'diradi. Su sababli shtrixlarimiz tovush sifati yaxshi bo'lishi uchun biz tempga qarab shtrix tanlashimiz zarur.

So'zim isbotini ufori zarb shtrixining turlari bilan ko'rsatib bermoqchiman.

Ufori zarb ya'ni 6/8 o'lchovda ijro etiladigan doira usuli. Quyida dutor cholg'usida ufori zarbning turlari va ushbu zarblar qanday templarga xosligi keltirilgan:

1. II V II II P o'rtacha va tez tepmlarda
2. II V II V P tez tempda

3. II V II IV II o'g'ir templarda

4. II P II P o'rtacha templarda

5. P II II P o'rtacha templarda

6. P II V P tez templarda

7. Va to'liqsiz | II II P II II | P II II P | o'rtacha va tez templarda ishlatiladi.

O'rtacha va tez templarda erkin ishlatilib kelinadigan eng asosiy ufori zarbning turi II V II II P shtrixi bo'lib, ushbu shtrixni tez tempda qo'llay bilish uchun ijrochidan mahorat talab qilinadi. Tez tempda chalishning murakkablik tomoni shundaki ketma ket pastga (II II) tomon ijro etiladigan shtrixlar o'quvchida biroz noqulaylik tug'dirib, tez tempda ushbu ko'rinishdagi shtrix ijro etilganda tovush sifati buziladi. O'rtacha tempda esa ushbu shtrix juda jozibador jaranglaydi.

Tez tempdagi asarlarda bemalol ijro etiladigan ushbu ufori zarbning ko'rinishi yuqorida izoh berilgan ufori zarbdan punktir ritm bilan ham usiz ham ishlatilishi bilan farq qiladi. Ushbu shtrix tez tempda juda salobatli jaranglaydi. Ushbu shtrixda tez tempda ijro qilinganda tovush sifati buzilmaydi. Sababi ushbu shtrixda ketma ket kelgan pastga (II II) ijro etiluvchi o'rni yo'q.

Og'ir templarga xos bo'lgan II V II IV II shtrixi O. Abdullayevaning "Dutor ifori" nomli asarining 2-andante qismida chiroyli jaranglaydi. Ushbu qism nolalarga boyitilgan holda sekin tempda mazkur shtrixda ijro etiladi. Iroda zarbning ikkinchi yarmidagi pastga tepaga (IV) shtrixi P shtrixi bilan almashtirilib chalinisa asarga o'zgacha ruh bag'ishlaydi.

P II II P va II P II P Shtrixlari o'rtacha templarga xos shtrix bo'lib, kam xollarda ishlatiladi. Sababi shundaki, ushbu shtrixni ijro etishga musiqa maktabi o'quvchilari yoki iste'dodi biroz kamroq talabalar qiynalishadi. Shtrixning murakkablik tomoni ketma ket pastga tomon yo'nalgan shtrixlardir (ma'lumot o'rnida P shtrixi ham pastga tomon shtrixdan boshlanadi).

Ushbu P II V P ko'rinishidagi shtrix tez tempda eng yengil chalinadigan shtrixdir. Buning sababi ushbu shtrixda hech qanday ketma ket pastga tomon yo'nalgan shtrixning yo'qligidir. Mana shu tomoni bilan mazkur shtrix ijrochiga tez tempdagi ijro jarayonida sifatli tovush va yetarli tempni hosil qilib bera oladi.

Eng murakkab bo'lgan | II II P II II | P II II P | zarbini men to'liqsiz deb atayman. Sababi bu zarbda bir hil tarkibli shtrixlarning 3 marta ketma ket chalinishi (II II P) natijasida to'liqsizliklik va o'zgacha sinkopa hosil bo'ladi. Ushbu zarbni ijro etish uchun ijrochida faqatgina o'ng qo'l mahorati emas, usul sezgisi ham ravon bo'lishi lozim. Aks holda to'liqsiz zarbni ijro etish jarayonida ijrochi shoshib ketib asarning mohiyatini va jo'rnavoz bilan birga chalishni yo'qotib qo'yishi mumkin.

Dutor cholg'usida shtrixlar tasnifi juda katta ahamiyat kasb etsa-da, asarga shtrix qo'yish ikkinchi darajadagi ish deya hisoblayman (Asar o'rganilish jarayonida avval nota matni o'rganilib so'ngra hilma-hil shtrixlar qo'yilib chiqiladi). Sababi, ijrochi hilma-hil shtrixlarda ijro etsa-da, tovush sifati, notalar cho'zimi yaxshi ijro qilinmasa ushbu

ijro yaxshi deya baholanmaydi. Ammo, tovush sifati va notalar cho'zimi to'g'ri bo'la turib shtrixlar hilma-hilligi bo'lmasa ham ijroni yaxshi deya baholay olmaymiz. Shunday ekan dutor cholg'usini ijro etishda shtrixlar, tovush sifati va notalar cho'zimi bir maromda o'rganilib borishi zarur.

Yuqorida tasniflab chiqilgan shtrixlarni sekin, o'rta va tez tempda ijro qila olish hususiyatlari ajratilib chiqilgan bo'lsa-da, mazkur shtrixlarni o'quvchiga shu tarzda o'rgatishimiz bilan o'quvchi erkin ijro etib keta olmaydi. Bu haqda quyida bir necha tavsiyalar berib o'tamiz.

O'quvchida shtrixlar almashinuvi vaqtida erkin ijro jarayonini yaratish uchun har bir turdagi zarblarni (shtrixlarni) o'qituvchi yuqorida tasniflangan ko'rinishda o'zi uchun tasniflab chiqadi. Va bir shtrixni tasniflangan turlari bilan o'rganish uchun muddat belgilab olishi zarur. Har bir qilinayotgan ishning albatta maqsadi bo'lishi lozim. Maqsadsiz qilingan ishdan yaxshi natija olish juda qiyin. O'qituvchi o'quvchi va o'zi uchun bir shtrixni o'rganish muddati ichida har bir o'quvchi qobiliyatiga qarab yuqorida tasniflangan shtrixlarni 2tadan 5tasigacha o'rgatishi lozim. Ushbu muddat davomida o'qituvchi har bir o'quvchi uchun o'ziga xos bo'lgan metodlarda dars o'tishi shartdir. Bu muddat davomida o'qituvchi o'quvchiga yuqorida tasniflangan shtrixlarni yozib berib gammalar va texnik mashqlar kesimida o'rgatishi, o'quvchi o'zi shtrix yaratish qobiliyatini ham bir varakayiga shakllantirishi mumkin. "To'g'ri uslub, maqsad va to'g'ri o'tilgan dars zinapoya vazifasini bajaradi. O'quvchilar ushbu zinapoyadan faqatgina balandga ko'tariladilar. Fan doirasida o'tilayotgan har bir mavzu oldingi va keyingi mavzular bilan bog'lanib yagona tizim yaratishi, yangi mavzuni o'rganish oldingi barcha mavzularni tushunishni o'z ichiga olishi kerak."*¹

O'quvchiga shtrixni o'rgatish uchun 20 soat darsimizni olamiz (2oyga yaqin muddat) va ushbu

*¹Kabalevskiy D. Aql va qalbni tarbiyalash - Moskva: Ma'rifat, 1984. 181-bet 4-xatboshi.

20soat darsimiz davomida har bir darsdan 5 daqiqa vaqtni shtrix o'rganish uchun ishlatamiz.

Eng avvalo o'quvchiga ilk eng asosiy ufori zarb hisoblanmish $\Pi V \Pi \Pi P$ shtrixini o'rgatiladi. Avval bu shtrixni ochiq torlarda ijro etib o'ng qo'l ijro etishi ancha yaxshilashgandan so'ng pardalarda ijro etishga o'tamiz.

Ikkinchi bo'lib biror gammani tanlab olamiz. Masalan C-dur (do-major) gammasini tanlaymiz va har bir gamma notasiga butun shtrixni ijro etamiz. Ushbu darsda o'quvchiga mazkur vazifani qo'shimcha ravishda uy vazifasiqilib beramiz.

Uchinchi bo'lib, keyingi darsda o'quvchi vazifani yaxshi bajarib kelgach, xuddi shu gammada endi shtrixni ikkiga bo'lib chaldiramiz ya'ni, C tovushiga shtrixning birinchi yarmi $\Pi V \Pi$ shtrixini D tovushiga esa shtrixning ikkinchi yarmi ΠP shtrixini ijro etib va o'quvchi nota daftariga yozib tushuntiramiz. Endi o'quvchida ushbu shtrix uchun ko'nikma malakalarni shakllantira boshlaymiz va ushbu vazifa uyga vazifa bo'lib qoladi.

To'rtinchi bo'lib, vazifa yana yaxshi bajarilgash endilikda shtrixni 4 qismga bo'lib chiqamiz. C tovushiga Π , D tovushiga V Π , E tovushiga Π , F tovushiga P tarzda shtrixni tovushlar kesimida bo'lib chiqamiz va gamma va texnik mashqlar kesimida takrorlab o'rgatamiz.

Shu tarzda o'quvchiga ufori zarbning turlarini o'rgatib boramiz. Shtrix yaratish qobiliyati shakllantirish uchun esa o'quvchiga quyidagi tarzda o'rgatamiz. 6/8 o'lchovdagi ufori zarb shtrixida 6ta shtrix bo'lishi kerak va biz yangi shtrix yaratishimiz uchun 6ta shtrixdan foydalanishimiz mumkin. Bunda turli shtrixlardan foydalanib yangicha hech kim hali ijro qilmagan usullar topishimiz mumkin, ammo, biz o'quvchiga hozir 6/8 o'lchovidagi ufori zarbning yangi turini topishi uchun Π V P shtrixlarini belgilab beramiz, o'quvchiga mazkur 3ta shtrixni ishtirok ettirib zarb yaratishi kerakligini tushuntiramiz. P ikkita shtrix o'rnida sanalishini doimo yodimizda tutib, o'quvchiga ham takrorlab borish lozim. O'quvchi o'zi ijod qilib biror shtrix tuzadi endi uni chalib ko'ramiz qanday jaranglar ekan. Agar o'quvchi yaratgan shtrix yaxshi jaranglasa ushbu shtrixni yuqoridagi o'rgatilish tartibida o'quvchiga o'rgatib boramiz. Yuqorida aytganimdek o'quvchi qobiliyatiga qarab, 20ta darsimiz davomida 2tadan 5tagacha shtrixni o'quvchiga butun yarim va 4 qismga bo'lingan tartibda asta-sekin o'rgata boramiz. Shtrixlarni o'quvchi yaxshi o'zlashtirgach endilikda shtrixlarni asar ijrosida ham qo'llay boshlaymiz. Sababi shtrixlarni o'quvchi faqat gamma yoki texnik mashqlarda chalib yuraversa, asarda hilma-hil shtrixlardan foydalana olmaydi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ayta olamanki, dutor cholg'usida ikkita tor bo'lgani bilan, mana shu ikkita torni ham jozibali qilib ijro etish uchun o'quvchi o'z ustida ko'p va to'g'ri ishlashi zarur. O'quvchi yaxshi ijrochi bo'lib yetishishida esa o'qituvchining ahamiyati katta. O'qituvchi tajribali, bilimli, o'z kasbini sevib unga sidqidildan yondashib shug'ullanadigan bo'lsa, har qanday qiyinchilikni yengib o'z o'quvchilarini yuksaklikka yetaklay biladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammedova G. Dutor - Toshkent: Xalq merosi, 2003. 5-9-betlar.
2. Rahimjonov B. Dutorchilar ansambli - Toshkent: G'.G'ulom, 2002. 4-8-betlar.
3. Qosimov O. Dutor taronalari - Toshkent: O'qituvchi, 1978. 3-4-betlar.
4. Akmaljonova M. Dutor orkestri - Toshkent: G'.G'ulom, 2004. 4-10-betlar.
5. Toshpo'latova I. An'anaviy dutor ijrochiligi - Toshkent: Metodika va axborot markazi, 2004. 3-14-betlar.
6. Muhammedova G. Dutor darsligi - Toshkent: O'qituvchi, 2005. 4-15-betlar.
7. Ergashev M. Ko'ngil guldastasi - Toshkent: Metodika va axborot markazi, 2005. 3-10-betlar.
8. Yunusov U. Xalq cholg'ularida ijrochilik - Toshkent: Musiqqa, 2021. 3-22-betlar.
9. Kabalevskiy D. Aql va qalbni tarbiyalash - Moskva: Ma'rifat, 1984. 180-183-betlar.

10. Rasultoev J. O'zbek dutor ijrochiligi - Toshkent: O'qituvchi, 1997. 3-86-betlar.

REFERENCES:

1. Muhammedova G. Dutor – Tashkent: People's Heritage, 2003. Pages 5-9.
2. Rakhimjanov B. Dutar ensemble – Tashkent: G. Gulom, 2002. Pages 4-8.
3. Kasimov O. Dutor songs – Tashkent: Teacher, 1978. Pages 3-4.
4. Akmaljonova M. Dutor orchestra – Tashkent: G. Gulom, 2004. Pages 4-10.
5. Toshpolatova I. Traditional dutar performance – Tashkent: Methodology and Information Center, 2004. Pages 3-14.
6. Muhammedova G. Dutor's textbook – Tashkent: Teacher, 2005. Pages 4-15.
7. Ergashev M. Bouquet of Hearts – Tashkent: Methodology and Information Center, 2005. Pages 3-10.
8. Yunusov U. Performance on folk instruments – Tashkent: Music, 2021. Pages 3-22.
9. Kabalevsky D. Nurturing the mind and heart – Moscow: Enlightenment, 1984. Pages 180-183.
10. Rasultoev J. Uzbek dutar performance – Tashkent: Teacher, 1997. Pages 3-86.